

YAQIN QARINDOSHLARIGA VA O'ZIGA QARSHI GUVOHLIK BERISHDAN BOSH TORTISHNING KONSTITUTSAVIY ASOSLARI

Safarboyeva Shahnoza Akbar qizi

Toshkent Davlat Yuridik universiteti

Jinoyat odil sudlov fakulteti 2-kurs.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14019838>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'ziga va yaqin qarindoshlariga nisbatan qarshi guvohlik hamda ko'rsatma berishdan bosh tortishning konstitutsiyaviy asoslari ochib berilgan.

Kalit so'zlari: Konstitutsiya, guvohlik, inson huquqlari, ijtimoiy rivojlanish, bosh tortish, shaxs, yaqin qarindoshlari, huquq va erkinliklar.

CONSTITUTIONAL GROUNDS FOR REFUSAL TO TESTIFY AGAINST RELATIVES AND HIMSELF

Abstract. This article reveals the constitutional grounds of refusing to give evidence and testimony against oneself and close relatives.

Key words: Constitution, testimony, human rights, social development, refusal, person, close relatives, rights and freedoms.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВАНИЯ ОТКАЗА ДАВАТЬ СВИДЕТЕЛЬСТВА ПРОТИВ РОДСТВЕННИКОВ И СЕБЯ СЕБЯ

Аннотация. В данной статье раскрываются конституционные основания отказа от дачи показаний против себя и близких родственников.

Ключевые слова: Конституция, показания, права человека, социальное развитие, отказ, личность, близкие родственники, права и свободы.

Joriy yilda, Xalqimizning orzu-umidlari, maqsad-u, istaklaridan iborat chin ma'nodagi xalq ijodi bo'lgan Yangi Konstitutsiya loyihasi umumxalq referendumga olib chiqildi va qabul qilindi. Demak, milliy g'urur va inson qadr-qimmatini, timsoli bo'lgan Konstitutsiyani qo'llab-quvvatlash, himoyalash, asrab-avaylash va unga rioya qilish har birimiz uchun sharaf, ham fahr, ham ma'sulyat, ham Vatan oldidagi oliy burch ekan. Bunday oliy burchni bajarish uchun Yangi Konstitutsiyamiz bilan tanishib chiqmog'imiz kerak. "Xo'sh,.. Yangi Konstitutsiya insoning huquqlariga qanday erkinliklar bermoqda..?" Shu haqida bir og'iz to'xtalib o'tamiz.., Yangi Konstitutsiyamizda inson huquqlari sohasida imperativ normalar emas, balki ko'plab aniqlashtirilgan, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi normalarni mumkin.

Bunday yondashuv rivojlanish strategiyamizning, Yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlar ko'lami va talabidan kelib chiqqangani ham bor gap, albatta.. Ma'lumki, O'zbekiston ijtimoiy rivojlanishning shunday yo'lini tanladi-ki, uning pirovard maqsadi dunyoning rivojlangan 50 talik davlati qatoridan joy olishdir. Yangi Konstitutsiyamizning 65 ta moddasiga o'zgarish va qo'shimchalar kiritildi, ulardan 16 tasi insonning ajralmas huquq va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyamizning "Muqaddima" qismida "Inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, asosiy qonunni qabul qilinadi degan so'zlarni o'qisak-da, atigi bir bo'limning o'zi Inson va fuqoralarining huquq va erkinliklarini bayon etar edi.

Mavzu bilvosita inson huquqlari bilan bog‘lanar ekan, keling konstitutsiyamizda mustahkamlangan Shaxs o‘ziga va qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligiga doir qoidani ko‘rib chiqsak.

Shaxs o‘ziga va qarindoshlariga qarshi guvohlik bermaslik huquqining kafolatlanishi surishtiruv, tergov va sud jarayonlarining xolislik va adolat tamoyillariga tayanib amalga oshirilishini ta‘minlaydi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 28-moddasida "Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas" degan mazmundagi insonparvar va qadriyatlarimizga mos norma mustahkamlangan. Tabiiy savol tug‘iladi, nima uchun jinoyat ishi bo‘yicha shaxs o‘ziga yoki yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas..?

Birinchidan, ushbu qoida shahxsga nisbatan har qanday ayblov ko‘rib chiqilayotgan tezkor -qidiruv xodimi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan unga nisbatan bosim o‘tkazishdan himoyalaydi.,

Ikkinchidan, o‘z aybiga majburan iqrор bo‘lishining oldini oladi, uchinchidan, jinoyat protsessi ishtirokchisidan majburiy ravishda uning qarindoshlariga qarshi ko‘rsatuv olishni taqiqlaydi.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktida ham, "o‘ziga-o‘zi qarshi ko‘rsatuv berishga yoki o‘zini aybdor deb tan olishga majbur qilinmaslik" kafolati belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat -protsessual kodeksining 116-moddasida shaxsning o‘z qarindoshlariga qarshi ko‘rsatuv bereshdagi erkinligi belgilangan bo‘lib, gumon qiluvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlariga guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida faqat o‘zlarining roziliklari bilan so‘roq qilinishlari mumkin. Lekin afsuski, tergov amaliyotida shunday holatlar ham uchraydiki, ayrim tergov xodimlari fuqarolarimiz o‘zining bunday huquqi borligini bilmasligidan foydalanib, o‘z qarindoshlariga nisbatan guvohlik berish erkin ekanligi va bu kabi guvohlik berishdan bosh tortish uchun jinoiy javobgarlik mavjud emasligini to‘liq . Natijada insonlarning mazkur huquqdan amalda real foshdalanishi cheklanadi.

Mazkur talab qator mamlakatlar konstitutsiyalarida, masalan, Ispaniya, Niderlandiya, Xorvatiya, Sloveniya va boshqa mamamlakatlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Ho‘sh ushbu qoida davlatga nima beradi,? degan savol tug‘iladi. Bu qoidaning O‘zbekiston Respublikasi Bosh Qomusida belgilanib qo‘yilishi jinoiy ta‘qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyatimizning bugungi holatini aks ettiradi va u kelajakka yo‘naltirilgani bilan ham tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, konstitutsiya “Yangi O‘zbekiston” ning hozirgi mohiyatini to‘laqonli bildirib turadigan asosiy hujjat desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Aynan konstitutsiya sababli, adolat va uni qo‘llash kabi tushunchalar amalda o‘z isbotini topdi.

REFERENCES

1. ¹. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон/ <https://lex.uz/docs/6445145>.

2. ² Янгиланаётган Конституция 100 саволга 100 жавоб. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти.-Тошкент.: "Адолат" миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 йил - 52-бет
3. ³ <http://lex.uz/docs/-2702116> Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga doir
4. ⁴ <https://lex.uz/docs/-111460?ONDATE=13.02.2021>